ZIYORAT TURIZMINING MINTAQAVIY IQTISODIY RIVOJLANISHGA TA'SIRI.....	978
Uzaqov Jamshid Norboyevich	
TIJORAT BANKLARINING EMISSION OPERATSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	983
Shaymanov Mexridin Ibragimovich	
ISLOM MOLIYASIDA MAJBURIYAT VA OMONAT MEXANIZMLARI: RAHN, VADIYA VA HAVALA.....	987
Sadikova Ra'no Abdullaevna	
FIRIBGARLIK BILAN BOG'LIQ AUDITORLIK TEKSHIRUVI RISKLARINI KAMAYTIRISH MASALALARI	991
Sirojiddinov Ikromiddin Qutbiddinovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ И ОЦЕНКА ФИНАНСОВЫХ РЕЗУЛЬТАТОВ UZAUTO MOTORS.....	996
Шарипов К.А., Зайнутдинова У.Дж.	
XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA BANDLIK BILAN TA'MINLASHGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR VA MUAMMOLAR TADQIQI.....	1005
Mirzayev Qulmamat Djonuzokovich, Saparov Murod Irgashovich	
YO'LOVCHI TASHISH XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI	1010
Alisher Kurambayev	
SUG'URTA XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA TAKAFUL SUG'URTASINING O'RNI VA IMKONIYATLARI.....	1014
Sattorov Ixtiyor Ochilovich, Karimov Shohruh Yo'ldoshali o'g'li	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSION FAOLIYATNI AMALGA OSHIRISHNING JORIY HOLATI TAHLILI.....	1020
Valikulov Sherzod Zaynitdinovich	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA MARKETPLEYSLARNI SHAKLLANTIRISH: INVESTITSIYALAR, XARAJATLAR VA FOYDA.....	1029
Axmedova Dilshoda Xayrulla qizi	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA O'ZBEKISTONDA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA MARKETING SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI.....	1033
Maxmudov Tohirjon Olimjonovich, Muminova Shahlo Madaminjon qizi	
OLIY TA'LIMDA GENDER TENGLIKNING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	1039
Xaydarova Sayyora	
ANALYZING THE COMPETITIVE ADVANTAGES OF SOUTH KOREA IN GLOBAL MICE TOURISM: HISTORICAL AND CULTURAL DIMENSIONS.....	1043
Ortikova Sabohat, Gulomova Mukhlisa, Ochilova Hilola Farmonovna	
MEHMONXONA BIZNESIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH ORQALI XIZMAT KO'RSATISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH (NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA)	1050
Usmanova Gulida Valiyevna	
ETHICAL ASPECTS OF ECOTOURISM: BALANCING SUSTAINABLE DEVELOPMENT AND MORAL RESPONSIBILITY.....	1055
Gulbakhor Sattarovna Abdullakhanova	
RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARDA INVESTITSIYA FAOLLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR.....	1062
Sobirov Abdurasul Abdugafarovich	



KADRLAR BOSHQARUVIDA INNOVATSION YONDASHUVLAR.....	1068
Urazov Sadulla Shodiyevich	
TIJORAT BANKLARIDA MOLIYAVIY JINOYATLARNING OLDINI OLISHDA KOMPLAENS-NAZORATNING ROLI.....	1074
Zokirov Ismoiljon Ibroximovich	
AGROSERVIS SOHASINI RIVOJLANTIRISH ORQALI KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH YO'LLARI	1078
Pardayev Mamayunus Qarshibayevich, Feruz Nematullayevich Abilov	
KO'MIR UCHUVCHI KULI ASOSIDAGI FLY ASH BETON VA GEOPOLIMER MATERIALLARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH UCHUN IQTISODIY VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH	1083
Muradov Botir Xayat	
КРЕАТИВНАЯ ЭКОНОМИКА В КОНТЕКСТЕ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ПРЕДПОСЫЛКИ В УЗБЕКИСТАНЕ	1091
Рахимова Манзура Хамид кизи	
DUE DILIGENCE IN AUDITING AS A FACTOR ECONOMIC EFFICIENCY IN THE AGRICULTURAL SECTOR.....	1098
Sidikov Dilmurod	
MAJBURIYATLAR HISOBINI MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	1102
Ergasheva Vasila Abdumajitovna	
ИННОВАЦИОННЫЕ МАРКЕТИНГОВЫЕ СТРАТЕГИИ И ПРОЦЕССЫ ЦИФРОВИЗАЦИИ БИЗНЕСА В УЗБЕКИСТАНЕ	1106
Рахимова Тамила Баходур кизи	
O'ZBEKISTON OLIY TA'LIM EKSPORT XIZMATLARI MOLIYAVIY NATIJADORLIGINI TA'MINLASH YO'LLARI.....	1113
Abdusattarova Dildora Bohodirovna	
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNI DAVLAT TOMONIDAN MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH BORASIDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBA VA UNDAN O'ZBEKISTONDA FOYDALANISH ISTIQBOLLARI	1120
Djurayeva Lola Abdugabbarovna	
HUDUDLARDA AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISHDA DAVLAT BUDJETIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	1125
Egamnazarova Gulnoza Xolmurod qizi	
O'ZBEKISTON ISLOHOTLARI ISTIQBOLIDA BARQAROR RIVOJLANISH KO'RSATKICHLARI HAMDA ESG INDIKATORLARINI JORIY ETISH	1129
Mirzaaxmedova Nodira Asqarali qizi, Tursunxodjayeve Shirin Zafar qizi	
O'ZBEKISTONDA KREDIT VA MOLIYAVIY TIZIMNI MODERNIZATSIYALASH: MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR	1135
Omonturdiyev Ortiq Eshboyevich	
O'ZBEKISTON FRANCHAYZING BRENDLARINING XALQARO BOZORLARDA IMIJINI MUSTAHKAMLASHDA ZAMONAVIY BRENDUKLAR YARATISHNING NAZARIY ASOSLARI VA AMALIY YECHIMLARI	1140
Xodjayev Anvar Rasulovich	
MINTAQANING INVESTITSIYA OQIMLARI VA TASHQI IQTISODIY ALOQALARI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK TAHLILI	1147
G'oyibnazarov Muhammad Xamidbekovich	
O'ZBEKISTON AGROTADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH STRATEGIYALARI VA IMKONIYATLARI	1152
No'monov Otabek O'rmonjon o'g'li	
NAMANGAN VILOYATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING INVESTITSION FAOLIYATI VA IQTISODIY SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH	1157
Xakimov Akbar Anvarovich	



TIJORAT BANKLARI XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISHNING IQTISODIY MOHIYATI VA UNING BANK FAOLIYATI SAMARADORLIGIGA TA'SIRI	1162
Atamuradov Bozorboy Berdimuratovich	
O'ZBEKISTONDA MOLIYAVIY SIYOSATNI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	1168
Sayitbayev Shermirza Datkamirzaevich	
ЭКОНОМЕТРИЧЕСКОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ БЮДЖЕТОВ ФТИЗИАТРИЧЕСКИХ УЧРЕЖДЕНИЙ ПРИ ПЕРЕХОДЕ К ОПЛАТЕ ПО КЛИНИКО-ЗАТРАТНЫМ ГРУППАМ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	1173
Эрматов Зоҳид Шавкатович	
SUSTAINABLE TOURISM IN KARAKALPAKSTAN: LINKING CULTURE, COMMUNITIES, AND ECOLOGY.....	1179
Indira Ermekebaeva	
TARIFLASH VA REZERVLAHNING ILMIY-AMALIY MODEL (O'ZBEKISTON SHAROITIGA MOSLASHTIRILGAN).....	1184
Maxmudov Komoliddin Rozmetovich	
XORIY TAJRIBASI ASOSIDA O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI.....	1188
Akmalova Ziyoda Doniyorovna	
ECONOMIC EFFECTS OF GASTRONOMIC TOURISM: AN ANALYSIS OF TOURISTS' FOOD EXPENDITURE PATTERNS.....	1193
Iroda Abdieva G'ayrat kizi	
WAYS OF IMPROVING AGRITOURISM IN UZBEKISTAN	1198
Ruxangiz Mirfayzovna Mavlonova, Istamkhuja Olimovich Davronov	
TA'LIM TIZIMIDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHNING DOLZARB MASALALARI.....	1203
Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich	



TA'LIM TIZIMIDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHNING DOLZARB MASALALARI

Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimida korrupsiyaga qarshi kurashishning dolzarb masalalari, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish mexanizmlari tahlil qilinadi. Ta'lim sohasida shaffoflikni ta'minlash, adolatli baholash tizimini joriy etish, raqamlashtirish jarayonlarini kengaytirish hamda korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan normativ-huquqiy asoslar o'rganiladi. Shuningdek, davlat siyosati doirasida amalga oshirilayotgan islohotlar, jumladan, ochiq tanlov tizimi, elektron platformalar orqali qabul va nazorat mexanizmlarining joriy etilishi muhim omil sifatida ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijasida ta'lim tizimida korrupsiyaning oldini olishda institutsional yondashuv, jamoatchilik nazorati va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etishi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: ta'lim tizimi, korrupsiya, shaffoflik, raqamlashtirish, davlat siyosati, jamoatchilik nazorati, islohotlar.

Abstract. This thesis examines the current issues of combating corruption in the education system of the Republic of Uzbekistan, analyzing existing challenges and mechanisms for their elimination. Special attention is given to ensuring transparency in education, implementing a fair assessment system, expanding digitalization processes, and studying the legal and regulatory framework aimed at preventing corruption. The study also considers ongoing state reforms, including the introduction of open selection procedures and the use of electronic platforms for admissions and monitoring, as important tools for improving the effectiveness of anti-corruption policy. The research concludes that an institutional approach, public oversight, and the effective use of information and communication technologies play a crucial role in preventing corruption within the education system.

Key words: education system, corruption, transparency, digitalization, public policy, public oversight, reforms.

Аннотация. В данной работе рассматриваются актуальные вопросы противодействия коррупции в системе образования Республики Узбекистан, анализируются существующие проблемы и механизмы их устранения. Особое внимание уделяется обеспечению прозрачности в сфере образования, внедрению справедливой системы оценки знаний, расширению процессов цифровизации, а также изучению нормативно-правовой базы, направленной на предупреждение коррупционных проявлений. Также в исследовании рассматриваются проводимые государственные реформы, включая внедрение системы от открытого отбора, использование электронных платформ для приема и контроля, как важные инструменты повышения эффективности антикоррупционной политики. В результате исследования обосновывается, что институциональный подход, общественный контроль и эффективное использование информационно-коммуникационных технологий играют ключевую роль в предупреждении коррупции в образовательной системе.

Ключевые слова: система образования, коррупция, прозрачность, цифровизация, государственная политика, общественный контроль, реформы.

KIRISH

Ta'lim tizimida korrupsiyaga qarshi kurash dolzarb mavzu hisoblanadi, chunki korrupsiya sifatli ta'lim va davlat xizmatining samaradorligini sezilarli darajada pasaytiradi. Maqolaning obyekti – ta'lim tizimidagi korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar; predmeti – korrupsiyaga qarshi huquqiy va institutsional mexanizmlar. Bugungi globalashuv va jadal islohotlar davrida ta'lim tizimi har qanday davlatning barqaror rivojlanishida muhim strategik soha hisoblanadi. Ta'lim sifati jamiyatning intellektual salohiyatini, inson kapitalini va iqtisodiy taraqqiyotini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Shu bois ta'lim tizimida shaffoflik, adolat va qonun ustuvorligini ta'minlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda korrupsiyaga qarshi kurash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilandi. Xususan, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etilishi,



shuningdek O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'RQ-419-son¹ Qonuni ushbu yo'nalishdagi tizimli islohotlarning huquqiy asosini mustahkamladi. Ta'lim sohasida esa qabul jarayonlarini raqamlashtirish, ochiq tanlov asosida ishga qabul qilish, baholash tizimini shaffoflashtirish kabi mexanizmlar joriy etildi. Shunga qaramay, ta'lim tizimida korrupsion holatlar jamiyat rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatib, teng imkoniyatlar tamoyiliga putur yetkazishi mumkin. Bu esa ta'lim boshqaruvida institutsional mexanizmlarni takomillashtirish, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanishni talab etadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi — O'zbekiston ta'lim tizimida korrupsiyaga qarshi kurashishning mavjud holatini tahlil qilish, muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot jarayonida tahliliy, qiyosiy-huquqiy va tizimli yondashuv usullaridan foydalaniladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ta'lim tizimida korrupsiyaga qarshi kurash masalalari xalqaro miqyosda keng o'rganilgan bo'lib, ushbu yo'nalishda siyosiy iqtisod, institutsional nazariya hamda boshqaruv samaradorligi konsepsiyalari asosiy metodologik tayanch bo'lib xizmat qiladi. Korrupsiyaning iqtisodiy rivojlanish va inson kapitaliga ta'siri masalasida Daniel Kaufmann, Aart Kraay va Massimo Mastruzzi tomonidan ishlab chiqilgan "Worldwide Governance Indicators" loyihasi alohida ahamiyatga ega. Ular boshqaruv sifati, hisobdorlik va korrupsiya darajasi o'rtasidagi bog'liqlikni empirik ma'lumotlar asosida asoslab bergan.

Susan Rose-Ackerman o'zining korrupsiyaning iqtisodiy nazariyasiga bag'ishlangan tadqiqotlarida davlat boshqaruvi va ta'lim kabi ijtimoiy sohalarda korrupsiyaning paydo bo'lish mexanizmlarini tahlil qiladi hamda institutsional islohotlarning muhimligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, ta'lim tizimidagi korrupsiya asosan ma'lumotlar shaffofligining pastligi, nazorat mexanizmlarining zaifligi va manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq.

Paolo Mauro 1995-yilda chop etilgan tadqiqotida korrupsiyaning iqtisodiy o'sishga salbiy ta'sirini ko'rsatib, inson kapitaliga investitsiyalar samaradorligining pasayishini empirik jihatdan asoslab bergan. Bu yondashuv ta'lim sohasida korrupsiyaning uzoq muddatli makroiqtisodiy oqibatlarini tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Robert Klitgaard korrupsiyani "monopoliya + diskretsiya – hisobdorlik" formulasi orqali izohlab, ta'lim tizimida vakolatlarning haddan tashqari markazlashuvi va shaffoflikning yetishmasligi korrupsion xavflarni kuchaytirishini ta'kidlaydi. Ushbu konsepsiya ta'lim muassasalarida boshqaruvni optimallashtirish va raqamli nazorat mexanizmlarini joriy etish zaruratini asoslaydi.

Ta'lim sohasiga xos korrupsion holatlar bo'yicha Jacques Hallak va Muriel Poisson 2007-yilda UNESCO doirasida olib borgan tadqiqotlarida qabul jarayonlari, baholash tizimi, o'qituvchilarni ishga qabul qilish va davlat xaridlari jarayonlarida korrupsiya xavflari mavjudligini ko'rsatadi. Ular ta'lim tizimida ochiqlik, jamoatchilik nazorati va axborotga erkin kirish imkoniyatini kengaytirish korrupsiyani kamaytirishning muhim sharti ekanligini asoslab beradi.

Bo Rothstein va Jan Teorell 2008-yilda "good governance" konsepsiyasi doirasida davlat institutlarining xolisligi va professional boshqaruvi korrupsiyani kamaytirishda hal qiluvchi omil ekanligini ta'kidlaydi. Ushbu nazariya ta'lim tizimida meritokratiya va shaffof tanlov mexanizmlarini kuchaytirish zarurligini ilmiy asoslaydi.

Shuningdek, Transparency International tomonidan har yili e'lon qilinadigan Korrupsiyani qabul qilish indeksi ma'lumotlari ta'lim tizimida korrupsiyaning umumiy institutsional muhit bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi. Xalqaro tashkilotlarning hisobotlari ta'lim sohasida raqamlashtirish, elektron hujjat aylanishi va ochiq ma'lumotlar siyosati korrupsion xavflarni kamaytirishda samarali vosita ekanligini tasdiqlaydi.

Yuqoridagi ilmiy yondashuvlar shuni ko'rsatadiki, ta'lim tizimida korrupsiyaga qarshi kurash faqat jazolash mexanizmlarini kuchaytirish bilan cheklanmasdan, institutsional islohotlar, shaffoflik, hisobdorlik va raqamli boshqaruvni joriy etish orqali kompleks tarzda amalga oshirilishi lozim.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda quyidagi ilmiy-uslubiy metodlardan foydalanildi:

1. Tahlil va sintez usuli. Ta'lim tizimidagi korrupsiya holatlari alohida o'rganilib, umumiy xulosalar chiqarildi.
2. Taqqoslash usuli. O'zbekiston tajribasi rivojlangan davlatlar tajribasi bilan qiyosiy tahlil qilindi.
3. Statistik tahlil. Davlat organlari va xalqaro tashkilotlar ma'lumotlari asosida statistik ko'rsatkichlar o'rganildi.
4. So'rovnoma va intervyu. Talabalar, o'qituvchilar va ma'muriy xodimlar o'rtasida anonim so'rovlar o'tkazish orqali muammo darajasi aniqlandi.

¹ <https://lex.uz/docs/-3088008>



5. Normativ-huquqiy hujjatlar tahlili. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi faoliyati hamda korrupsiyaga qarshi qonunchilik asoslari o'rganildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Huquqiy bazaning rivojlanishi 2017–2026-yillar davomida izchil va bosqichma-bosqich amalga oshirildi. Dastlabki davrda korrupsiyaga qarshi kurashishning mustahkam huquqiy poydevori yaratildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi O'RQ-419-son²li Qonun sohadagi asosiy tushunchalar – korrupsiya, korrupsiyaviy huquqbuzarlik va manfaatlar to'qnashuvini huquqiy jihatdan belgilab berdi. 2017–2019-yillarda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar, jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.05.2019 yildagi “O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5729-son³li Farmon va davlat xaridlari sohasini tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlari tizimni shakllantirishda muhim qadam bo'ldi. Mazkur bosqich korrupsiyaga qarshi kurashishda institutsional va normativ asoslarni mustahkamlashga xizmat qildi.

2020–2022-yillarda esa tizim sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyunda qabul qilingan “O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PF-6013-son⁴li Farmon asosida Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etildi va bu organning mustaqil faoliyati ta'minlandi. 2021-yilda ochiqlik va shaffoflikni kuchaytirishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 16.06.2021 yildagi “Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta'minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PF-6247-son⁵ hamda 06.07.2021 yildagi “Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo'lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-6257-son⁶li farmonlar davlat organlari faoliyatida jamoatchilik nazoratini kengaytirdi. O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 8-avgustda qabul qilingan “Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida”gi O'RQ-788-son⁷ Qonun davlat xizmatchilarining maqomi, huquqlari va cheklovlarini aniq belgilab, meritokratiya tamoyilini mustahkamladi. Ushbu bosqichda tanish-bilishchilik va manfaatlar to'qnashuvi kabi omillarni kamaytirishga qaratilgan mexanizmlar sezilarli darajada kuchaytirildi.

2023–2026-yillar bosqichi esa nazoratni raqamlashtirish va inson omilini qisqartirishga yo'naltirilgan zamonaviy yondashuvlar bilan ajralib turadi. 2023-yil 30-aprelda yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining⁸ qabul qilinishi davlat xizmatchilarining ochiqligi va mas'uliyatini konstitutsiyaviy darajaga ko'tardi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-noyabrda qabul qilingan “Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-200-son⁹li Farmon hamda O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 5-iyundagi “Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida”gi O'RQ-931-son¹⁰ Qonuni manfaatlar to'qnashuvini deklaratsiya qilish va tartibga solish mexanizmlarini amaliyotga joriy etdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-dekabrda “O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida”gi PF-270-son¹¹li Farmon bilan 2030-yilgacha mo'ljallangan milliy strategiya tasdiqlandi. 2026-yil 1-iyuldan boshlab “Digital Compliance” tizimini to'liq ishga tushirish rejalashtirilgani esa raqamli nazorat va sun'iy intellekt asosidagi monitoring tizimlari orqali shaffoflikni yangi bosqichga olib chiqishni ko'zda tutadi.

Umuman olganda, O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy baza oddiy jazolash mexanizmlaridan kompleks profilaktika, institutsional mustaqillik va raqamli nazorat tizimlariga o'tganini ko'rsatadi. Qonunchilikning izchil takomillashuvi, ochiqlik siyosati va zamonaviy texnologiyalarning joriy etilishi davlat boshqaruvida shaffoflikni mustahkamlash, davlat xizmatchilarining mas'uliyatini oshirish hamda ta'lim tizimida halollik va adolat tamoyillarini keng qaror toptirishga xizmat qilmoqda (1-jadval).

2 <https://lex.uz/docs/-3088008>

3 <https://lex.uz/docs/-4355387>

4 <https://lex.uz/uz/docs/-4875784>

5 <https://lex.uz/docs/-5459107>

6 <https://lex.uz/docs/-5495529>

7 <https://lex.uz/uz/docs/-6145972>

8 <https://lex.uz/docs/-6445145>

9 <https://lex.uz/uz/docs/-6676585>

10 <https://lex.uz/docs/-6952742>

11 <https://lex.uz/uz/docs/-7962922>



1-jadval. Korrupsiyaga qarshi kurash davrlar kesimida¹²

Davr	Asosiy fokus
2017–2019	Qonuniy tushunchalar berish.
2020–2022	Maxsus Agentlik tuzish va Ochiqlik (Open Data).
2023–2026	Manfaatlar to'qnashuvi va Raqamli nazorat (AI).

2017-yil 3-yanvarda qabul qilingan “Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi O'RQ-419-sonli Qonun O'zbekistonning zamonaviy antikorrupsion siyosatidagi “poydevor” hujjat hisoblanadi. Ushbu qonun bilan sohadagi asosiy tushunchalar ilk bor huquqiy jihatdan mustahkamlandi.

O'RQ-419-sonli Qonun tizimning “dasturiy kodi” vazifasini bajaradi. Keyinchalik qabul qilingan barcha Farmon va Qarorlar aynan ushbu qonundagi prinsiplarni ijro etishga qaratilgan. Masalan, 2024-yilda qabul qilingan “Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida”gi Qonun ushbu bazaviy qonunning 21-moddasini kengaytirilgan va amaliy ko'rinishidir.

O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 8-avgustda qabul qilingan “Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida”gi O'RQ-788-sonli Qonuni O'zbekiston tarixida davlat amaldorlarining maqomi, huquqlari va, eng muhimi, cheklovlarini belgilab bergan ilk yaxlit hujjatdir. Ushbu qonun korrupsiyaga qarshi kurashishda “filtr” vazifasini o'taydi.

Qonunning asosiy maqsadi meritokratiya tamoyilini qaror toptirishdan iborat bo'lib, davlat xizmatiga tanish-bilishchilik (nepotizm) orqali emas, balki bilim va tajriba asosida kirishni ta'minlashga qaratilgan. Davlat fuqarolik xizmatiga qabul qilish faqat ochiq, mustaqil tanlov asosida amalga oshirilishi shart qilib belgilandi. Shuningdek, davlat fuqarolik lavozimlarining yagona reyestri yuritilishi yo'lga qo'yildi.

Qonunning 13-moddasi korrupsiyaning oldini olishda eng muhim qism hisoblanadi. Davlat xizmatchisiga tadbirkorlik bilan shug'ullanish, ya'ni bir vaqtning o'zida tadbirkorlik subyekti ta'sischi bo'lishi yoki uning boshqaruvida qatnashishi taqiqlanadi. Bevosita bo'ysunuvdagi lavozimlarda yaqin qarindoshlarning (ota-ona, aka-uka, farzandlar va boshqalar) birga ishlashi taqiqlangan. Xizmat vazifalarini bajarishi munosabati bilan jismoniy va yuridik shaxslardan har qanday turdagi sovg'a yoki mukofot olishga yo'l qo'yilmaydi. Muayyan toifadagi rahbarlar uchun O'zbekiston tashqarisida bank hisobvaraqlariga ega bo'lish cheklangan.

Qonun davlat xizmatchilarining o'z daromadlari va mol-mulki to'g'risida deklaratsiya topshirish majburiyatini qonuniy darajada mustahkamladi. Bu tizim amaldorning xarajatlari va daromadlari o'rtasidagi tafovutni aniqlash imkonini beradi.

Shuningdek, mazkur hujjat nafaqat cheklovlarni, balki davlat xizmatchisining huquqiy himoyasini ham nazarda tutadi. Rahbar o'zgarganda quyi bo'g'in xizmatchilarini asossiz ishdan bo'shatish cheklangan. Ish haqi, dam olish va pensiya ta'minoti kafolatlari belgilangan bo'lib, bu xizmatchining ijtimoiy barqarorligini ta'minlash va korrupsiyaga berilmaslik uchun muhim omil sifatida xizmat qiladi (2-jadval).

2-jadval. Qonunchilikdagi islohotlar natijalari¹³

Holat	Qonungacha	Qonundan keyin
Ishga kirish	Asosan tanish-bilish yoki yopiq buyruq bilan.	vacancy.argos.uz orqali ochiq tanlovda.
Biznes faoliyati	Ko'plab amaldorlar yashirin biznesga ega edi.	Qat'iy taqiq va ishonchli boshqaruvga berish talabi.
Etika	Har bir idorada har xil edi.	Yagona “Davlat xizmatchilari odob-axloq qoidalari” joriy etildi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Agar O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi O'RQ-419-sonli Qonun korrupsiyaga qarshi kurash tizimining poydevori bo'lgan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyunda qabul qilingan “O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PF-6013-sonli Farmon uning institutsional devorlarini barpo etdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-dekabrda “O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish tizimini

¹² Muallif ishlanmasi

¹³ Muallif ishlanmasi



yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PF-270-son Farmoni esa mazkur tizimning mantiqiy davomi sifatida uni strategik boshqaruv bosqichiga olib chiqdi. Mazkur hujjat bilan korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati "reaktiv", ya'ni huquqbuzarlik sodir bo'lgach choralar ko'rish yondashuvidan "proaktiv", ya'ni xavflarni oldindan aniqlash va ularning oldini olish mexanizmlariga o'tmoqda.

O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 5-iyundagi "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi O'RQ-931-son Qonuni esa antikorrupsiya qonunchiligini amaliy jihatdan mustahkamlab berdi. Avvalgi normativ-huquqiy hujjatlarda manfaatlar to'qnashuvi tushunchasi umumiy va nazariy tarzda ifodalangan bo'lsa, mazkur qonun uni aniqlash, deklaratsiya qilish va bartaraf etishning aniq tartib-taomillarini joriy qildi. Shu orqali davlat boshqaruvida shaxsiy manfaat va davlat manfaatini qat'iy ajratish tamoyili huquqiy majburiyat darajasiga ko'tarildi.

Qonunning qamrov doirasi keng bo'lib, u nafaqat davlat organlari va muassasalariga, balki ustav kapitalida davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan xo'jalik jamiyatlari hamda ularga tegishli korxonalarga ham tatbiq etiladi. "Yaqin qarindoshlar" va "aloqador shaxslar" tushunchalarining aniq belgilab berilishi esa manfaatlar to'qnashuvini yashirin shaklda yuzaga kelishining oldini olishga xizmat qiladi. Bu normalar orqali qaror qabul qilish jarayonida shaffoflik va xolislikni ta'minlash mexanizmi mustahkamlandi.

Qonunda manfaatlar to'qnashuvi mavjud va ehtimoliy turlarga ajratilgan bo'lib, bu yondashuv profilaktik nazoratni kuchaytiradi. Shuningdek, dastlabki va vaziyatli deklaratsiya institutining joriy etilishi davlat xizmatchilarining ochiqchilikni ta'minlashda muhim qadam bo'ldi. Endilikda manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelgan yoki yuzaga kelishi ehtimoli mavjud bo'lgan holatlarda bu haqda o'z vaqtida xabar berish qonuniy majburiyat hisoblanadi.

Javobgarlik choralari kuchaytirilgani ham mazkur qonunning amaliy ahamiyatini oshiradi. Manfaatlar to'qnashuvi haqida xabar bermagan mansabdor shaxslarga ma'muriy jarimalar qo'llanilishi, shuningdek bunday sharoitda qabul qilingan qarorlarning sud tartibida haqiqiy emas deb topilishi mumkinligi tizimning muqarrarlik prinsipiga asoslanganini ko'rsatadi. Avval "tanish-bilishchilik" ko'pincha axloqiy masala sifatida baholangan bo'lsa, endilikda u huquqiy javobgarlikni keltirib chiqaruvchi huquqbuzarlik sifatida e'tirof etilmoqda.

Umuman olganda, 2017–2019-yillarda huquqiy poydevor shakllantirildi, 2020–2022-yillarda institutsional mustaqillik va ochiqlik mexanizmlari joriy etildi, 2023–2026-yillarda esa raqamli nazorat va manfaatlar to'qnashuvini boshqarish ustuvor yo'nalishga aylandi. Mazkur evolyutsiya korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining bosqichma-bosqich takomillashib borayotganini ko'rsatadi.

Kelgusida ta'lim muassasalarida raqamli monitoring tizimlarini kengaytirish, manfaatlar to'qnashuvi holatlarini aniqlash va bartaraf etish mexanizmlarini yanada kuchaytirish, o'quv dasturlariga halollik va shaffoflik tamoyillarini singdiruvchi maxsus modullarni joriy etish hamda sun'iy intellekt asosidagi nazorat tizimlarini davlat xaridlari va tender jarayonlariga keng tatbiq etish maqsadga muvofiqdir. Bu yondashuv korrupsiyaning ildiz sabablarini kamaytirish va davlat boshqaruvida barqaror halollik muhitini shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Akhtar, N., Syakir Ishak, M. I., Bhawani, S. A., & Umar, K. (2021). Various natural and anthropogenic factors responsible for water quality degradation: A review. *Water*, 13(19), 2660–2670.
2. O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'RQ-419-sonli Qonun // <https://lex.uz/docs/-3088008>
3. O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 8-avgustda qabul qilingan "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi O'RQ-788-son Qonun // <https://lex.uz/uz/docs/-6145972>
4. O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 5-iyundagi "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi O'RQ-931-son Qonuni // <https://lex.uz/docs/-6952742>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-dekabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PF-270-son Farmoni // <https://lex.uz/uz/docs/-7962922>
6. Kaufmann D., Kraay A., Mastruzzi M. Governance Matters VIII: Aggregate and Individual Governance Indicators, 1996–2008. World Bank Policy Research Working Paper. 2009.
7. Rose-Ackerman S. Corruption and Government: Causes, Consequences, and Reform. Cambridge University Press. 1999.
8. Mauro P. Corruption and Growth. *Quarterly Journal of Economics*. 1995.
9. Klitgaard R. Controlling Corruption. University of California Press. 1988.
10. Hallak J., Poisson M. Corrupt Schools, Corrupt Universities: What Can Be Done? UNESCO, International Institute for Educational Planning. 2007.
11. Rothstein B., Teorell J. What Is Quality of Government? A Theory of Impartial Government Institutions. *Governance*. 2008.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
